

YASHIL IQTISODIYOTDA QISHLOQ XO'JALIG I RISKLARNI BOSHQARISHNING KONSEPTUAL BOSHQARISH VOSITALARI

Diyorov Dilshod Mirzoyevich

Buxoro davlat texnika universiteti 2-kurs talabasi

Qishloq xo'jaligi O'zbekiston iqtisodiyotining asosiy tarmog'i bo'lib, aholi bandligi va daromadlarining salmoqli qismini ta'minlaydi. 2025-yilda mamlakatimiz iqtisodiyoti 7.6 foizga o'sib, hajmi 1,45 trillion so'mni (taxminan 115 milliard AQSh dollari) tashkil etdi. Aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot (YaIM) 1303.7 trillion so'mga (130 mlrd AQSh dollari) oshdi.

Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, qishloq xo'jaligi iqtisodiyotdagi jami bandlikning qariyb 27 foizini tashkil qiladi. Qishloq xo'jaligi yerlari respublika hududining 45% ni egallaydi, aholining 50% ga yaqini qishloqlarda istiqomat qiladi.

Keyingi yillarda O'zbekiston qishloq xo'jaligida muhim tashkiliy va iqtisodiy o'zgarishlar amalga oshirildi. 2023-yilda Jahon banki tomonidan "O'zbekistonda chorvachilik sohasini rivojlantirish. 2-bosqich" mahsuldor, raqobatbardosh va iqlimga chidamli chorvachilik tarmog'ini yaratishga qaratilgan loyiha tasdiqlandi. Bundan tashqari, 2025-yilda O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan innovatsion texnologiyalarni joriy etish va agrobiznesni rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish davom ettirilmoqda.

Bu natijalar davlat tomonidan har tomonlama qo'llab-quvvatlanayotgani, jumladan, imtiyozli kreditlar olish, suvni tejaydigan irrigatsiya tizimlarini joriy etish, mahsuldorlik va mahsulotlarning xalqaro bozorlarda raqobatbardoshligini oshirish maqsadida agroklastlar tashkil etilishi natijasida erishildi. Bu qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish bo'yicha strategik yo'nalish mamlakatimiz iqtisodiyoti va aholi farovonligiga sezilarli foyda keltirayotganini tasdiqlaydi.

Qishloq xo'jaligi sohasi o'zining tabiiy va iqtisodiy xususiyatlari tufayli turli risklarga moyil hisoblanadi. Bu risklar orasida iqlim o'zgarishlari, tabiiy ofatlar, kasalliklar va zararkunandalar tarqalishi, shuningdek, bozor narxlarining o'zgaruvchanligi kabi omillar mavjud. Ushbu omillar qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish jarayonida kutilmagan yo'qotishlar va iqtisodiy zararlarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli, agrar sohada risklarni baholash va boshqarish qishloq xo'jaligi faoliyatining barqarorligi va samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Risk – bu juda turli xil va ba'zan qarama-qarshi tamoyillarga ega bo'lgan murakkab hodisa. Bu "risk" tushunchasining turli darajada, ularni qo'llash doirasiga mos keladigan turli xil ta'riflarning mavjudligiga olib keladi. Fanda bu tushunchaning universal talqini haligacha mavjud emas. Risk muammolari bo'yicha qiyin munozaralar davom etmoqda, chunki kontseptsianing o'zi hali aniq talqinni topa olmadi.

Risk - yuzaga kelishi xo'jalik yurituvchi sub'ekt tomonidan resurslar (mehnat, yer, kapital, texnologiya, vaqt, bilim) va/yoki iqtisodiy manfaatlarni yo'qotishiga olib kelishi mumkin bo'lgan potentsial hodisadir.

Iqtisodiyot fani va amaliyotida riskga nisbatan quyidagi tushunchalardan foydalaniladi: predmet, ob'ekt, shartlar, omillar, bajariladigan funksiyalar, belgilari, xususiyatlari:

1. Risk subyekti – uni amalga oshirish natijasida kelib chiqadigan risk oqibatlari qo'llanilishi mumkin bo'lgan tadbirkorlik sub'ekti.

2. Risk ob'ekti - risk ta'sir qiladigan narsa (mahsulotlar va tovarlar, texnologiyalar, kapital va mulk, intellektual mulk, axborot va kommunikatsiyalar, raqobatdosh ustunliklar, xodimlar, huquq va majburiyatlar, vaqt, boshqa qadriyatlar).

3. Riskning paydo bo'lishining zaruriy shartlari tadbirkorlik muhiti sharoitlarining noaniqligi va xo'jalik yurituvchi sub'ekt resurslarining cheklanganligidir.

4. Xavf omillari - ma'lum turdagi xavfning paydo bo'lishiga olib keladigan va uning xarakterini belgilaydigan jarayon va hodisalar.

5. Risk belgilari - noaniqlik, zarar, ahamiyatlilik, qarama-qarshilik, muqobillik.

6. Risk funksiyalari – tartibga solish, himoya, tahliliy, innovatsion, kompensatsion, profilaktik, ijtimoiy-iqtisodiy.

7. Risk xususiyatlari – iqtisodiy tabiat, namoyon bo'lishning xolisligi, yuzaga kelish ehtimoli, oqibatlarning noaniqligi, salbiy oqibatlarni kutish, darajaning o'zgaruvchanligi, baholashning subyektivligi.

Umuman olganda, risklarni boshqarish – bu muayyan choralar ko'rish to'g'risida qaror qabul qilish jarayoni bo'lib, unda riskni kamaytirish orqali foyda olish bilan bog'liq xarajatlarni muvozanatlash va unga erishish bo'yicha harakatlarni ifodalaydi. Risklarni boshqarish jarayonida ularni minimallashtirish yoki oldini olish choralari to'g'ri tanlash hamda risklarni boshqarish samaradorligini oshirish muhim rol o'ynaydi. Risklarni boshqarish riskni kamaytirish vositalari va riskni minimallashtirish choralari hamda usullaridan iborat bo'ladi.

Risklarni kamaytirish yoki minimallashtirish vositalari quyidagilardan iborat:

1) riskdan maksimal darajada qochish (riskning muayyan turiga duch kelmaslik bo'yicha ongli qarorni qabul qilish);

2) kutilayotgan zararni bartaraf etish yoki oldini olish (yo'qotishlarni minimallashtirish va ularning ehtimolini kamaytirish yuzasidan ko'rilgan choralar);

3) tadbirkorlik faoliyatida tavakkalchilikka borish (yo'qotishlarni qoplashni o'z resurslaridan foydalangan holda amalga oshirish);

4) riskni kamaytirish maqsadida uni boshqa shaxslarga o'tkazish (masalan, davlat-xususiy sherikligida yuzaga keladigan risklar).

Xulosa qilib aytganda, qishloq xo'jaligi tashkilotidagi risklarni boshqarish tizimi uning faoliyati samaradorligini va uning oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarga muvofiqligini baholash uchun doimiy monitoring ostida bo'lishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ермасова, Н.Б., Ермасов С.В. Финансовый менеджмент: учебное пособие – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Издательство Юрайт; ИД Юрайт, 2010. – 621с. – (Основы наук). (130-б).
2. U.A.Temirxanov Qoraqalpog'iston Respublikasi xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik risklarini baholash tizimini takomillashtirish. Nukus, 2024.
3. Киреенко, Н. В. Модели развития аграрного бизнеса в международной практике/ Н.В.Киреенко // Вес. Нац. акад. навук Беларусі. Сер. аграр. навук. – 2021. – Т. 59, № 1. – С. 22–40.
4. Kireyenka, N. Risk management in distribution system of agroindustrial complex /N.Kireyenka, L.Viarokha (L.Pavlovich) // Scientific Bulletin of EScorena. – 2014. – Vol.9., July. – P. 15–25.
5. Качалов, Р. М. Управление хозяйственным риском / Р.М.Качалов. – М.:Наука, 2002. – 191 с.
6. Рогова,Е.М. Управление финансами предприятия в условиях кризиса / Е.М.Рогова, Е.А.Ткаченко, А.С.Соболев. – СПб.: Изд-во Вернера Регена, 2009. – 211с.
7. Семенов, Б.Д. Организационно-экономический механизм управления хозяйственным риском на предприятии / Б.Д.Семенов, О.В.Володько. – Пинск: Полесс. гос. ун-т, 2011. – 147 с.
8. Шапкин, А.С. Экономические и финансовые риски: оценка, управление, портфель инвестиций/ А.С.Шапкин, В.А.Шапкин. – 9-е изд. – М.: Дашков и Ко, 2016. – 543с.